

MAMLAKATIMIZDA TEMIR YO‘L TRANSPORTI TARIXINI O‘RGANISH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR TAHLILI

Niyazov Adxam Abduganiyevich
Guliston davlat universiteti II bosqich
tarix ta'limi yo'nalishi magistranti
E-mail: adxam.niyazov@mail.ru
Tel:(99) 630 07 55

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonda temir yo'llar qurilishining boshlanishi, undan ko'zlangan maqsad, sohaga oid mavjud adabiyotlar va tadqiqot natijalariga to'xtalib o'tilgan. Temir yo'l qurilishiga bag'ishlangan manbalar Chor Rossiyasi davridagi, Sovet Ittifoqi davridagi va O'zbekistonning mustaqillik yillari davridagimanbalar tarzida tizimlashtirilgan. Mavjud manbalarning mazmuni qisqacha tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo temir yo'li, Toshkent-Orenburg temir yo'li, Kaspiyorti temir yo'li, temir yo'l tarmog'i tarixi, Xorazm vohasida transport infratuzilmasi, Toshkent temir yo'li, Termiz temir yo'li.*

Ниязов Адхам Абдуганиевич
Магистрант II курса исторического
образования Гулистанского
государственного университета
E-mail: adxam.niyazov@mail.ru
Тел: (99) 630 07 55

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются начало строительства железных дорог в Средней Азии, в частности в Узбекистане, их цель, существующая литература и результаты исследований в этой области. Источники, посвященные железнодорожному строительству, систематизированы в виде источников периода царской России, периода Советского Союза и периода независимости Узбекистана. Кратко проанализировано содержание имеющихся источников.*

Ключевые слова: *Среднеазиатская железная дорога, Ташкентско-Оренбургская железная дорога, Закаспийская железная дорога, история*

железнодорожной сети, транспортная инфраструктура Хорезмского оазиса, Ташкентская железная дорога, Термезская железная дорога.

Niyazov Adkham Abduganievich

Second-year Master's student in Historical Education at Guliston State University

E-mail: adxam.niyazov@mail.ru

Phone: (99) 630 07 55

AN ANALYSIS OF RESEARCH ON THE HISTORY OF RAILWAY TRANSPORT IN OUR COUNTRY

Abstract: *This article examines the beginning of railway construction in Central Asia, particularly in Uzbekistan, its purpose, existing literature, and the results of research in this field. Sources dedicated to railway construction are systematized as sources from the period of Tsarist Russia, the Soviet Union period, and the period of Uzbekistan's independence. The content of the available sources is briefly analyzed.*

Keywords: *Central Asian Railway, Tashkent-Orenburg Railway, Trans-Caspian Railway, history of the railway network, transport infrastructure of the Khorezm oasis, Tashkent Railway, Termez Railway.*

Mamlakatimiz tarixshunosligida O‘zbekistonda temir yo‘l qurilishi tarixi 3 ta davrga bo‘lingan holda, ya’ni Chor Rossiyasi mustamlakachiligi, Sho‘ro hukumati davri va mustaqillik yillari davri tartibida majmuali tarzda o‘rganilmagan. Shuningdek, hozirgi kunda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar, tasdqiqlangan rejalar asosida mazkur sohadagi istiqbol loyihalar haqida ma’lumot beruvchi tadqiqotlar olib borilmagan. Biroq, ayrim tadqiqotlarda O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning ilk temir yo‘llari tarixini, uning o‘lka ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga ta’sirini, Kaspiyorti temir yo‘li, Farg‘ona temir yo‘li, Toshkent-Orenburg temir yo‘li qurilishi tarixi va ularning faoliyatiga oid ayrim masalalarga to‘xtalib o‘tilgan.

Shundan kelib chiqib, tarix fanlari nomzodi, dotsent A.Tog‘ayevaning Toshkent–Orenburg temir yo‘li tarixiga oid adabiyot va tadqiqotlarni davriy va nazariy-konseptual jihatdan to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish taklifini yurtimizda temir yo‘l tarmoqlarining qurilishi va shakllanishi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham samarali qo‘llash mumkin. Bular:

1. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida chop etilgan nashrlar.
2. Sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar.
4. Xorijiy tadqiqotlar [35].

O‘rta Osiyoda temir yo‘llarning qurilishi dastlab harbiy-strategik maqsadlarda olib borilganligi tufayli mazkur mavzuni yorituvchi adabiyotlar asosan Chor Rossiyasi harbiylari tomonidan yozib qoldirilgan xotiralar, yodnomalar, kundaliklar, sayohat yozishmalari ko‘rinishida uchraydi. Masalan, M.N.Annenkov [6], V.A.Andreyvskiy [5], S.Grabovskiy [13], I.Ya. Vaslik [10], A.I.Rodzevich [31], V.N.Antipin [7]., N.P.Verxovskiy [11], P.P.Migulin [24], A.Dmitriyev-Mamonov [15], N.Poltaranov [26], M.A.Terentyev [34], D.Joravka-Pokorskiy [17], A.V.Krivoshein [20], S.I.Gulishambarov [14] va boshqalarning asarlarida shunday ma’lumotlar mavjud.

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga oid dastlabki adabiyotlarda asosan temir yo‘llar o‘lkada imperiya manfaatlarini nechog‘lik ifoda etayotganligi tahlil etilib, mazkur yo‘nalishga aloqador ma’lumotlar berilgan. Masalan, V.N. Antipin va N.N. Levashevlarning tadqiqotida Toshkent–Orenburg temir yo‘li loyihalari va ularning muhokamasi jarayoni, temir yo‘l o‘tgan hududlarning tabiiy-geografik tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan hamda bu omillarning temir yo‘l faoliyatida nechog‘lik ahamiyat kasb etishi borasidagi mulohazalar bildirilgan [35].

Toshkent–Orenburg temir yo‘l boshqaruvida 1906-1909 yillar mobaynida rahbarlik lavozimida ishlagan N.P. Verxovskiyning asarida esa Toshkent– Orenburg temir yo‘lining iqtisodiy, tijorat, xo‘jalik va moliyaviy holati va faoliyati tahlil etilgan [35].

A.I. Dmitriyev-Mamonov asarlarida ham Toshkent temir yo‘li tarixiga oid ma’lumotlardan tashqari, O‘rta Osiyodagi rus mulklarining geografik va tarixiy sharhini beruvchi materiallar kiritilgan. Shuningdek, tasvirlanayotgan davrda Turkiston neft konlarining savdo-sanoat ahamiyati yuqori bo‘lganligi sababli, ushbu nashrda Farg‘ona neftiga oid ocherk ham berilgan [15].

M. Terentyev, A. Krivoshein, N. Malaxovskiy, S. Gulishambarov kabi mualliflarning asarlarida Rossiya imperiyasining Toshkent–Orenburg temir yo‘lini qurishdan ko‘zlagan maqsadlari, temir yo‘l qurilishi natijasida o‘lkaning iqtisodiy hayotida hamda uning Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar haqida qiziqarli fikr - mulohazalar va ma’lumotlar qayd etilgan [35].

Turkistonda temir yo‘l tarixiga oid manbalardan biri sifatida ikkinchi temir yo‘l batalyoni komandiri V.V.Andreyevskiyning kundaligini keltirish mumkin. Unda Qizil Arvatdan Samarqandgacha temir yo‘l qurishda ishtirok etgan ikkinchi batalyon haqida katta ma’lumot berilgan. Ishda Kaspiyorti temir yo‘l qurilishi ishtirokchilari bo‘lgan S.Grabovskiy va boshqalarning esdaliklaridan foydalanilgan [15].

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida yozilgan O‘rta Osiyo temir yo‘lining qurilishi, zarurati va sabablarini yorituvchi o‘rganishlarning muhim tomoni shundaki, ularda asosan temir yo‘l qurilishining ahamiyati imperiyaning mustamlakachilik manfaatlaridan kelib chiqqan holda tahlil etilgan. Biroq, shunday bo‘lsada, mazkur davr mualliflari asarlarida o‘rganilayotgan davrga tegishli bo‘lgan katta hajmdagi

asoslangan ma'lumotlar mavjudligi sababli, ular O'zbekiston hududida temir yo'l qurilishi mavzusini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XX asrning 20-50 yillari oralig'idagi adabiyot va tadqiqotlarda asosan 1922 yildagi Farg'ona – Quvasoy, 1924 -yildagi Qarshi – Kitob , 1925- yildagi Amudaryo – Termiz, 1926- yildagi Termiz – Jarqo'rg'on va Farg'ona – Qizilqiya, 1927- yildagi Andijon – Tentaksoy (hozirgi Paxtaobod tumani yaqinidagi stansiya), 1928-1932 yillardagi Jarqo'rg'on – Dushanbe, 1931-yildagi Asaka –Shahrixon, 1935- yildagi Uchqo'rg'on – Toshko'mir, Ikkinchi Jahon urushi yillarida Angren ko'mir havzasiga va Chirchiq elektrokimy o kombinatiga yotqizilgan temir yo'llar, 1941-1945 yillardagi To'qimachi- Angren va 1947- yildagi Salar-Barraj liniyalari haqida ma'lumotlar, tarixiy materiallar uchraydi.

Sovet Ittifoqi tarixshunosligida ham O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishiga oid maxsus tadqiqot yo'q. Umumiy mavzudagi qator tadqiqotlar olib borilgan hamda maqolalar e'lon qilingan bo'lib, ularda ham temir yo'l qurilishi bilan bog'liq masalalarga qisman to'xtalib o'tilgan. Masalan: A.M.Aminov "Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi iqtisodiy siyosatining asosiy chizgilari" (1947) [3], P.I. Lyashenko "SSSRning xalq xo'jaligi tarixi" (1952) [22], V.Suvorov "Turkistonning iqtisodiy-tarixiy rivojlanish ocherki"da O'rta Osiyo temir yo'l tarmog'i qurilishining oqibatlari haqida to'xtalib o'tgan [33].

Shuningdek, mavzuga qisman aloqador bo'lgan Z.R. Nuriddinovning "O'rta Osiyoda 1884-1885 yillarda ingliz-rus ziddiyati" (1950), G.F. Dashleygerning "Turksib qurilishi tarixi"(1950) mavzularidagi tadqiqotlarini sanab otish mumkin.

V.A.Suvorov O'rta Osiyo temir yo'li va Toshkent-Orenburg temir yo'llarining qurilishi o'lkaning sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va madaniyatiga ta'sirini baholagan. U asosan xususiy kompaniyalar tomonidan 1911-1916 yillarda qurilgan Farg'ona va 1914-1916 yillarda qurilgan Buxoro temir yo'llariga katta e'tibor qaratgan [33].

Shuningdek, G.S.Kunavina Turkistondagi temir yo'l ishchilarining soni va tarkibi[21], I.Gafurdjanova 1900-1917 yillarda Farg'ona temir yo'l tarmog'ining qurilishi tarixi [12], O'zbekistonda temir yo'l transportining rivojlanish tarixi, R.Z.Shmidt esa O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishining iqtisodiy oqibatlari [42], K.P.Terexin va L.A.Belyavskiy Kaspiyorti harbiy temir yo'li qurilishi haqida tadqiqotlar olib borishgan.

Shu bilan birga bu davrda A.M.Aminov [4], P.N.Chernov [40], A.V.Aksenov [2] va boshqalar tomonidan ham temir yo'llarning qurilishi va shakllanishiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan esa I.Gafurdjanova [12], S.Xodjayev [39], A.Jabbarov [16], K.U.Uljabayev [36], T.T.Safarov [32], K.R.Raxmonov [30] va D.Mengeldin [23] larning tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin.

I.Gafurdjanova Farg‘ona temir yo‘lining viloyat rivojlanishiga iqtisodiy, siyosiy, madaniy ta‘siriga to‘xtalgan bo‘lsada, qurilishda ishtirok etgan ishchilar soni, tarkibi haqida ma‘lumotlar berilmagan [12].

Z.K.Ahmadjonovanning tadqiqotlarida dastlab temir yo‘l qurilishlari bilan band bo‘lgan ishchilar orasida mahalliy ishchilarning ulushi 25-40 % atrofida bo‘lganligi, bu ko‘rsatkich Chor Rossiyasi hukmron doiralarini xavotirga solganligi hamda XIX asrning 90-yillaridan mahalliy ishchilarni temir yo‘llar qurilishi bilan bog‘liq ishlardan chetlatishga harakatlar kuzatilganligini qayd etiladi [8].

R.Z.Shmidt, K.P.Terexina, L.A.Belyavskiylarning maqolalarida esa O‘rta Osiyo temir yo‘lining qurilish va foydalanishga topshirilishining alohida bosqichlari berilgan, xolos [8].

Umuman olganda, sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarda temir yo‘li qurilishi tarixiga oid ko‘pgina muhim tarixiy manbalar ilmiy iste‘molga kiritilganligi, o‘rganilayotgan muammoning yangi jihatlari yoritila boshlanganligi muhim bo‘lsada, mazkur ishlarda tarixiy tadrijiylik ko‘zga tashlanmaydi, mavzu kompleks va yaxlit holda batafsil o‘rganilmagan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng yaratilgan tadqiqotlarda muammoga butunlay yangicha nazariy-konseptual va metodologik yondashuvlar o‘z aksini topdi. Bu davrga kelib, temir yo‘llarning metropoliya manfaatlari yo‘lida xizmat qilganligi va o‘lka moddiy boyliklarini tashib ketishdagi roli keng manbaviy ma‘lumotlar asosida ochib berila boshlandi [35].

Mustaqillik yillarida esa mazkur sohaga e‘tiborning kuchayishi, transport mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli qurilish ishlari olib borilishi munosabati bilan ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, H. Ziyayev [19], T.T.Safarov [32], N.U.Musayev [25], A.Z.Tog‘ayeva [35], N.A.Abdurahimova [1], G.A.Ahmedjanov [9], M.M.Sharofiddinov [41], J.J.Majidov [45], U.X.Gulmatov [43], G.M.Shadiyeva, E.Urazaliyev [49], X.D.Xidirov [38], B.Yuldashev [48], F.B. Jumaniyozov [18], O.A.Radjabov [28] va A.A.Isayev [44]lar mazkur mavzuga oid o‘rganishlar olib borgan, qator asar va maqolalar e‘lon qilgan.

Bu borada F.B.Jumaniyozovning “Xorazm vohasida transport infratuzilmasi tizimida temir yo‘l transportining vujudga kelishi”(2019) maqolasi va “Xorazm transporti: shakllanishi, taraqqiyoti, muammolari”(2021) mavzusidagi dissertatsiya ishini[18], O.A.Rajabovning “Urushning dastlabki yillarida O‘zbekistonda temir yo‘llar tizimi”(2021) [29], “Termiz temir yo‘llarining qayta tiklanishi” (2021) [28], “История развития железнодорожного транспорта в Узбекистане” (2021) [27] kabi maqolalarini, X.D.Xidirovning “O‘zbekistonda transport sohasi: natijalar va muammolar (XX asrda Surhon vohasi misolida)” (2021) mavzusidagi dissertatsiyasini qayd etib o‘tish lozim [38].

Temir yo‘l tarixiga oid tadqiqotlarning aksariyati O‘rta Osiyo temir yo‘l tarmog‘i, uning ma‘lum bir davri, Toshkent -Orenburg temir yo‘l liniyasi, Buxoro temir yo‘l tarmog‘i, Farg‘ona temir yo‘li, Kaspiyorti temir yo‘li haqida bo‘lib, mamlakatimizda temir yo‘l tarmog‘ini shu kungacha bo‘lgan tarixini davriy tarzda yoritadigan tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonda temir yo‘llarning vujudga kelishi, ularni o‘lka bo‘ylab shakllanishi, har bir davrda sohada amalga oshirilgan o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan, sohadagi tarixiy o‘zgarishlarni xarita, jadval va elektron qurilmalar yordamida ifoda etadigan tadqiqot ishlari zaruratga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.): автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Ташкент, 1994. – 68 с.
2. Аксенов А.В. Оренбургско–Ташкентская железная дорога и её роль в развитии капитализма в Средней Азии: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – М., 1955. – 19 с.
3. Аминов А.М. Основные линии экономической политики царской России в Средней Азии // Научная сессия АН УзССР. – Ташкент, 1947.
4. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. – 298 с.
5. Андреевский В.В. Военно-историческая летопись 2-го Закаспийского железнодорожного батальона (1885–1910 гг.). – Киев, 1910.
6. Анненков М.Н. Закаспийская железная дорога, её значение и будущее. – СПб., 1887.
7. Антипин В.Н., Левашев Н.Н. Путеводитель по Туркестану и Среднеазиатской железной дороге. – СПб.: В. Березовский, 1903. – 536 с.
8. Ахмаджанова З.К. Ўрта Осиёда темир йўллар қурилиши тарихига доир (1880–1917 йиллар). – Тошкент: Фан, 1965. – 213 б.
9. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 1995. – 218 с.
10. Вацлик И.Я. Закаспийская железная дорога, её значение и будущее. – СПб., 1888.
11. Верховский Н.П. Туркестан в районе Ташкентской железной дороги. – СПб., 1910. – 311 с.
12. Гафурджанова И. Из истории строительства Ферганской железной дороги (1900–1917 гг.). – Ташкент, 1961.

13. Грабовский С. Очерк участия 2-го Закаспийского железнодорожного батальона в постройке Закаспийской железной дороги // Военный сборник. – 1895. – № 4–5. – С. 221–245.
14. Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. – Ашхабад, 1913. – 287 с.
15. Дмитриев-Мамонов А. Путеводитель по Ташкентской железной дороге. – СПб., 1907. – 186 с.
16. Жабаров А. Развитие транспорта Узбекской ССР (1961–1980 гг.): дис. ... канд. экон. наук. – Киев, 1982. – 150 с.
17. Жоравка-Покорский Д. Экономическое значение железных дорог в Средней Азии. – Новая Бухара, 1898.
18. Жуманиёзов Ф.Б. Хоразм транспорти: шаклланиши, тараққиёти, муаммолари: автореф. дис. ... PhD. – Бухоро, 2021. – 54 б.
19. Зиёев Ҳ.З. Сибирь, Волга ва Урал бўйларига ўзбеклар. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 318 б.
20. Кривошеин А.В. Записка о поездке в Туркестанский край в 1912 году. – Полтава, 1912. – 187 с.
21. Кунавина Г.С. К вопросу о численности железнодорожного пролетариата // Труды ТашПИ. – Ташкент, 1962. – С. 79–95.
22. Лященко П.И. История народного хозяйства СССР. – М.: Госполитиздат, 1952. – 739 с.
23. Менгельдин Д. Пути развития транспорта республики // Экономика и жизнь. – 1965. – № 7. – С. 12–17.
24. Мигулин П.П. Наша железнодорожная политика (1893–1902 гг.). – Харьков, 1902.
25. Мусаев Н.У. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2008. – 168 б.
26. Полтаранов Н. Заметки о Закаспийской железной дороге (1880–1889 гг.). – Самарканд, 1890.
27. Раджабов О.А. История развития железнодорожного транспорта в Узбекистане // Материалы конференции. – Пенза, 2021. – С. 94–97.
28. Раджабов О.А. Термиз темир йўлининг қайта тикланиши // Тамаддун нури. – 2021. – № 5. – Б. 93–94.
29. Раджабов О.А. Урушнинг дастлабки йилларида Ўзбекистонда темир йўллар // ЎзМУ хабарлари. – 2021. – № 1. – Б. 38–40.
30. Рахманов К.Р. Трудовой подвиг народов...: автореф. дис. – Ташкент, 1974.
31. Родзевич А.И. Очерк постройки Закаспийской железной дороги. – СПб., 1891.
32. Сафаров Т.Т. Ўрта Осиё савдо йўллари: автореф. дис. – Тошкент, 2009. – 30 б.

33. Суворов В.А. Историко-экономический очерк развития Туркестана. – Ташкент, 1962.
34. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. – СПб., 1906. – 496 с.
35. Тогаева А.З. Железная дорога Ташкент–Оренбург...: автореф. дис. – Ташкент, 2010. – 30 с.
36. Ульджабаев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте. – Ташкент: Меҳнат, 1999. – 39 с.
37. Хидиров Х.Д. Из истории Термезской железнодорожной магистрали // Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – № 2. – С. 315–320.
38. Хидиров Х.Д. Ўзбекистонда транспорт соҳаси...: автореф. дис. – Термиз, 2021. – 54 б.
39. Ходжаев С. Развитие транспорта в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – 111 с.
40. Чернов П.Н. К истории строительства железной дороги Ташкент–Оренбург // Известия АН УзССР. – 1956. – Т. II. – С. 161–171.
41. Шарофиддинов М.М. Строительство железных дорог Центральной Азии // Молодой ученый. – 2016. – № 12. – С. 718–720.
42. Шмидт Р. Среднеазиатская железная дорога и её влияние... – Ташкент, 1965.
43. Gulmatov U.X. O‘zbekiston Respublikasida transport siyosati (1991–2023 yy.): PhD avtoreferat. – Buxoro, 2024. – 48 b.
44. Isayev A.A. Transport geografiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. – 152 b.
45. Majidov J.J. XX asrning 50–80 yillarida Buxoroda transport tizimi: PhD avtoreferat. – Toshkent, 2025. – 55 b.
46. Shadiyeva G.M., Urazaliyev E. History of railway transport development // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Vol. 2. – P. 221–226.
47. Tog‘ayeva A.Z. Toshkent–Orenburg temir yo‘li va Rossiya imperiyasi siyosati // O‘zbekiston tarixi. – 1999. – № 4.
48. Yuldashev B. O‘zbekiston temir yo‘llari rivojlanishi // Respublika ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 128–132.
49. Shadiyeva G.M., Urazaliyev E. History of railway transport development in our country and foreign experiences//Eurasian journal of academic research// Volume 2 Issue 8, August 2022. p. 221-226.